

UNDALMA BO‘LAKNI O‘QITISHDA METODIK TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH (8-SINF MISOLIDA)

Abdullayeva Gulsoraxon Bahodir qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

E-mail: gulsoraabdullayeva711@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada undalma bo‘lakni o‘qitish haqida ma’lumotlar va unga oid misollar keltirilgan. Undalma bo‘lakning birikmashakl bilan ifodalanishi haqida so‘z boradi. 8-sinf o‘quvchilarida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari hamda darsga qiziqtirish maqsadida qiziqarli metodlardan foydalanish haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, ona tili, undalma bo‘lak, gapshakl, birikmashakl, tajriba-sinov, interaktiv yondashuv, kuzatish va tahlil.

Zamonaviy til o‘qitish metodikasi o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydigan, uning fikrlash doirasini kengaytiradigan va nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradigan yondashuvlarni talab etadi. O‘zbek tilining boy grammatik tizimi har bir bo‘lakning o‘ziga xos vazifasini, mantiqiy va nutqiy o‘rnini chuqur o‘rganishni talab qiladi. Ayniqsa, o‘zbek tilining grammatik jihatlarini, jumladan, gap bo‘laklari, xususan, undalma bo‘lagini o‘rgatishda metodik topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Undalma bo‘lagi, garchi gapning asosiy bo‘lagi hisoblanmasa-da, nutqning ta’sirchanligini oshiruvchi, tinglovchi yoki o‘quvchi e’tiborini tortuvchi vosita sifatida muhim vazifani bajaradi. O‘quvchilarda undalma bo‘lagiga nisbatan anglash va qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularning og‘zaki va yozma nutqi boyitiladi, fikrlarini ifoda qilishda tabiiylik hosil bo‘ladi.¹

Ushbu maqolada aynan 8-sinf o‘quvchilari bilan ishlashda undalma bo‘lagini o‘rgatishga doir metodik topshiriqlarning mazmuni, turlari va samaradorligi tajriba asosida

¹ Qurbonov, M. O‘zbek tili grammatikasi. – T.: Fan, 2005. 134-b.

tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi — 8-sinfda undalma bo‘lagini o‘rgatishda metodik topshiriqlardan foydalanish tajribasini o‘rganish, samarali yondashuvlarni tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildiradigan so‘z yoki birikma undalma deyiladi. Undalma grammatik jihatdan hech bir bo‘lakka bog‘lanmaydi. Undalma alohida ohang bilan ajratilib aytiladi. Uning gapdagi o‘rni erkin: gap boshida ham, o‘rtasida ham, oxirida ham kelishi mumkin. Undalma jonivor yoki jonsiz narsaga ham qaratiladi: Qarg‘avoy, men seni yeyman. (Ertakdan); Seni unutilmas yuragim aslo, ey O‘rta Osiyo, O‘rta Osiyo. (G‘.G‘.)

Undalma uyushib kelishi ham mumkin: Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o‘g‘illar, opa-singillar, sizga oila tinchligi hamma narsadan muhim.²

Gap undalma bilan ham kengayishi mumkin. Undalma gap tarkibidagi II shaxs kishilik olmoshi bo‘lgan so‘zshakl ma’nosini muayyanlashtiruvchi unsur bo‘lib, u mantiqan so‘z kengaytiruvchisi maqomida bo‘ladi. Biroq u kengayayotgan so‘z bilan bog‘langanda, grammatik aloqaga ega emas. Undalma mazmunan bog‘langan so‘zshakl nutq yo‘naltirilgan shaxs yoki narsa-predmetni ifodalaydi. Undalma vazifasida, odatda, bosh kelishikdagi ot, ba‘zan otlashgan so‘zshakllar keladi. Demak, undalma gap lisoniy strukturasiga bevosita daxldor bo‘lmagan, gap tarkibidagi ifodalangan yoki ifodalanmagan ikkinchi shaxs olmoshining so‘z kengaytiruvchisi hisoblanadi. Ajratilgan bo‘lak ajralmish bo‘lak bilan mazmunangina munosabatga kirishganligi kabi, undalma ham nutq yo‘naltirilgan shaxs, predmet bilan mazmuniy bog‘lanishga ega bo‘ladi. Undalma kengaytirgan olmosh so‘zshakl gapning barcha bo‘laklari, bo‘lakning kengaytiruvchilari, qolaversa, bo‘lak bo‘laklarining kengaytiruvchilari bo‘lishi mumkin: kesim: Do‘stim, ishonganim sensan; ega: Oybek, sen maktabga kechikyapsan; hol: Halim, sen tufayli murodimga yetdim; aniqlovchi: Gulbadan, sening muhabbating dilingda pinhon; to‘ldiruvchi: Qarchig‘ay changalim, senga yo‘l bo‘lsin. Undalma qo‘llanganda u kengaytirgan so‘z tushib qolishi ham mumkin. 1. Ey Sharqning bo‘stoni, dilimga payvand! 2. Kel, ey Furqat, suxanni muxtasar qil. So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki

² 8-sinf ona tili darsligi – Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2019. 129-b.

predmetni ifodalovchi soʻzshakl gap tarkibida yoʻq boʻlishi va uni tiklab ham boʻlmasligi mumkin: 1. Hoy qizlar, mana boʻldi pora-pora paranji. 2. Yigitcha, mashina joʻnayapti. Ammo baribir, undalma ifodalanmagan ikkinchi shaxs olmoshi mazmunning muayyanlashtiruvchisi ekanligi maʼlum boʻlib turadi. Undalma vazifasida qoʻllanadigan soʻz: ot: Xola, bemahalda nima qilib yuribsiz?; otlashgan soʻz: 1. Koʻrganlar, gapiring. 2. Tentagim, nima deysan? 3. Birinchi, men ikkinchi! Undalma kengayishi ham mumkin: 1. Yaxshi yigit, sevganingdan ayrilma. 2. Oq ilon, oppoq ilon, oydinda yotganing qani? Undalma uyushishi ham mumkin. Bunda nutq turli narsalarga qaratiladi. Daraxtlar, boʻstonlar, sizdan soʻrayman. Undalma gapning barcha oʻrinlarida kela oladi. Gap boshida kelganda uni ochadi, oxirida esa yopadi: 1. Aziz doʻstim, omonmisan? 2. Omonmisan, aziz doʻstim. Undalma mustaqil gap maqomini ham olishi mumkin: Bola qichqirdi: “Dada!”.³

Undalma — koʻp hollarda ikkinchi darajali boʻlak sifatida qaralsa-da, uning kommunikativ va tarbiyaviy ahamiyati katta. Til oʻrgatish jarayonida grammatik kategoriyalarni faqat nazariy oʻrganish emas, balki ularni hayotiy misollar, amaliy mashgʻulotlar va interaktiv metodlar orqali oʻzlashtirish – zamonaviy taʼlimning asosiy talablaridandir. Ayniqsa, undalma kabi bevosita muloqotga xizmat qiluvchi boʻlakni oʻqitishda metodik topshiriqlarni qoʻllash oʻquvchilarning nutqiy faolligini, fikrini ifoda qilish malakasini rivojlantiradi. Tilshunoslik nazariyasida undalmaga nutq ishtirokchisini yoki tinglovchini toʻgʻridan-toʻgʻri murojaat shaklida bildiruvchi boʻlak sifatida qaraladi. U gapning sintaktik asosida qatnashmaydi, ammo gapning ohangida, mazmunida muhim semantik yukni tashiydi. Metodik adabiyotlarda undalma boʻlagini oʻrganish quyidagi bosqichlarga boʻlinadi:

1. Anglash bosqichi – undalmaning gapdagi vazifasini tushunish;

2. Tahlil bosqichi – matnlarda undalmani ajrata olish;

3. Qoʻllash bosqichi – undalmadan ogʻzaki va yozma nutqda mustaqil foydalanishdan iborat. Ushbu bosqichlarni toʻliq amalga oshirish uchun oʻqituvchi

³ Rahmatullayev Sh. – Hozirgi oʻzbek adabiy tili, Toshkent: Fan, 2009. 376-b.

metodik topshiriqlarni sinf darajasiga mos, tushunarli va ijodiy yondashuv asosida tanlash zarur.⁴

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan 8-sinf ona tili darsligida undalma bo'lagi alohida mavzu sifatida yoritilgan bo'lib, o'quvchilarni nazariy bilim bilan tanishtirish, mashq va topshiriqlar orqali bu bilimni amaliyotda qo'llash maqsadi ko'zlangan. 8-sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlash, bahs yuritish, matn tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, grammatik bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish salohiyatiga ham ega. Shu bois, bu yosh davrida undalma bo'lagini o'rgatish faqat qoidani yod olish emas, balki o'quvchini nutqiy muloqotga tayyorlash vositasi sifatida qaraladi.

O'quvchilarga undalma haqida bilim berishda quyidagi metodik tamoyillarga e'tibor qaratiladi:

Interaktiv yondashuv: savol-javob, rolli o'yinlar, muloqotga asoslangan topshiriqlar.

Kuzatish va tahlil: adabiy matnlar, hikoyalar yoki she'rlardan undalma bo'laklarini aniqlash.

Yozma topshiriqlar: undalma qatnashgan gaplar tuzish, fikr bildirish, ochiq xat yozish.

Og'zaki mashqlar: dialog tuzish, sahnalashtirish, bahs-munozara tashkil etish.

Bu yondashuvlar orqali o'quvchi undalmani grammatik birlik sifatida emas, balki til madaniyatining ajralmas elementi sifatida qabul qiladi. Shu orqali u o'z fikrini ifodalashda madaniyatli, ohangdor va maqsadli gap tuzishga odatlanadi. Topshiriqlar orqali o'quvchilar faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishadi. Ayniqsa, og'zaki mashqlar va o'yinli metodlar ularning qiziqishini uyg'otadi, shuningdek, kommunikativ malakalarini ham rivojlantiradi.⁵

⁴ G'ulomov A., To'xtaboyeva M. – O'zbek tili o'qitish metodikasi, Toshkent: O'qituvchi, 2020. 274-b.

⁵ Rasulov, M., Jo'rayev, B. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. 159-b.

Ushbu maqola doirasida 2025-yil aprel oyida Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 281-umumta'lim maktabining 8-“V” sinfida undalma bo‘lagi mavzusiga bag‘ishlangan uchta sinov darsi tashkil etildi. Darslar “O‘zbek tili” fani dasturi asosida olib borildi. Darsdan asosiy maqsad – o‘quvchilarning undalma bo‘lagi haqidagi bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda metodik topshiriqlar yordamida faolliklarini oshirishdan iborat edi. Darslar davomida quyidagi bosqichlar asosida metodik topshiriqlar sinovdan o‘tkazildi:

Boshlang‘ich bosqich: o‘tilgan mavzuni takrorlash, undalmaning ta’rifi va misollarini esga olish;

Asosiy bosqich: interaktiv metodlar asosida topshiriqlar bajarish;

Mustahkamlash bosqichida: yozma va og‘zaki mashqlar yordamida o‘quvchilar mustaqil ishladi.

Dars davomida quyidagi topshiriqlar qo‘llanildi:

1. “Kimga aytilmoqda?” nomli o‘yin: O‘quvchilar gapdagi undalmani aniqlashdi va uni kimga qaratilganini aytishdi.

2. Rolli o‘yin – “Maktab yig‘ilishi”: Har bir o‘quvchi o‘zini ota-ona, o‘qituvchi yoki o‘quvchi sifatida tasavvur qilib, undalmani ishtirok ettirgan holatda gapirdi.

3. Matn asosida undalmani topish. “Tuz haqi” matni asosida undalma bo‘laklarini ajratish mashqi.

4. Yozma ish — ochiq xat yozish. “Qadrli do‘stimga maktub” mavzusida xat yozish vazifasi topshirildi. Bunda har bir o‘quvchi xatida kamida 2–3 ta undalma ishlatishi kerak edi. Xatlar o‘qib eshittirilib, sinfda muhokama qilindi.

5. Matn tahlili: Berilgan hikoyadan undalmalarni topish va ularning gapdagi o‘rnini izohlash.

Tajriba-sinov natijalari quyidagicha bo‘ldi:

O'quvchilarning 32 nafaridan 27 nafari ya'ni 84 foizi undalmani mustaqil ajrata oldi;

76 foiz, 24 nafar o'quvchi yozma topshiriqlarda undalmani to'g'ri ishlatdi;

91 foiz, 29 nafar o'quvchi og'zaki nutqda undalmadan foydalangan holatlarni keltira oldilar.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, interaktiv yondashuv, ayniqsa o'yinli mashg'ulotlar, o'quvchilar qiziqishini oshirib, mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga yordam berdi. Darsda o'zaro muloqot, rolli o'yinlar, bahs-munozara asosida ishlash o'quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini, balki ijtimoiy nutqiy malakalarini ham rivojlantirdi.

Amaliy kuzatuv va sinov darslari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Undalma bo'lagi, garchi sintaktik asosiy bo'lak bo'lmasa-da, til o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Chunki u o'quvchilarda murojaat madaniyatini shakllantiradi va og'zaki nutqning tabiiyligini ta'minlaydi.

2. Metodik topshiriqlar mavzuni o'zlashtirish darajasini oshiradi. Ayniqsa, fikrlashga asoslangan, yaratuvchanlik talab qiladigan topshiriqlar o'quvchini mavzu markaziga olib chiqadi.

3. O'qituvchining roli yo'naltiruvchi va faollashtiruvchi bo'lishi kerak. O'qituvchi faqat nazariy bilim berib qolmay, undalmani hayotiy misollar, kundalik nutqdagi holatlar bilan bog'lab tushuntirishi lozim. Undalma kabi mazmunan sodda ko'ringan bo'laklar ham metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilmasa, yuzaki o'rganiladi.

4. Davlat ta'lim dasturlari doirasida undalma mavzusiga ko'proq interaktiv topshiriqlar kiritilishi zarur. Bu grammatik mavzuni faqat qoidaga asoslangan holda emas, balki ijtimoiy nutq doirasida o'rganishga yo'naltiradi.

O'qituvchilar uchun beriladigan tavsiyalar: O'quvchilar o'rtasida ochiq maktublar, bahslar va rolli o'yinlar tashkil etish;

Undalma bo'yicha yozma va og'zaki nazorat ishlari kontekstual yondashuv asosida olib borilishi;

O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarda undalma bo'yicha maxsus bo'limlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'ulomov A., To'xtaboyeva M. – O'zbek tili o'qitish metodikasi, Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. 8-sinf ona tili darsligi – Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2019.
3. Rahmatullayev Sh. – Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent: Fan, 2009.
4. Qurbonov, M. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Rasulov, M., Jo'rayev, B. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
6. Jumaniyozova, G. Interaktiv metodlar asosida o'zbek tilini o'qitish. – Andijon– 2021.